

Date: 23rd September-2025

JADID MA'RIFATPARVARLARINING LUG'ATCHILIK FAOLIYATI

Sirojova Dilyora Fayzullo qizi

Annotatsiya. Ushbu tezisdav davr lug'atchiligi shakllanishiga ehtiyoj, jadidlarning o'zbek lug'atchiligi rivojiga qo'shgan hissasi, ular yaratgan lug'atlarning lingvistik qimmati, lug'at tuzish prinsiplari va metodologik asoslari, ularning zamonaviy o'zbek leksikografiyasi rivojiga ta'siri kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Jadidlar, lug'at, ma'rifat, matbuot, Turkiston, g'oya, harakat.

Turkistonda jadidchilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yaratilgan edi. Ayniqsa, o'lkada millatning dard alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali, og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk ozodlik taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllangan edi. Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ham ta'siri kuchli bo'ldi.

Jadidchilik ilmiy maktablari va ma'rifatparvar jadid ziyolilari faoliyati XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 20-30 yillari o'zbek madaniyati, ta'lim tizimi, adabiyoti, tili va tilshunosligi rivoji, taraqqiyoti va takomilida alohida ahamiyatga ega.

Jadid ma'rifatparvarlarining ona tiliga munosabati, o'zbek milliy va adabiy tilning takomili, me'yorlashuvi, shevalarga, xalq tiliga e'tibori, tilning sofligi, boshqa tillar bilan munosabati, til o'rganish, ikki tillilik, ko'p tillilik borasidagi qarashlari va ularning tildan foydalanish mahorati vatanparvarlikning oliy namunasi bo'lib, o'zbek adabiy tilining leksik, grammatik, imloviy me'yorlashuvi, sayqallanishi, takomili hamda rivojida, hozirgi darajaga kelishida muhim rol o'ynaydi.

O'zbek zamonaviy leksikografiyasiga ham jadid ziyolilari tamal toshini qo'ygan. Ular yaratgan lug'atlar mazkur davr ijtimoiy hayotining zaruriyati sifatida yuzaga kelgan. Jadid ziyolilari – tilshunoslar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, pedagoglar tomonidan yaratilgan tarjima, o'quv lug'atlari ilk lingvistik lug'at namunalaridir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 20 – 30 - yillarida turkiy, jumladan, o'zbek lug'atchiligi Sharq, xususan, arab va Yevropa lug'atchiligi-ning yutuqlari hamda an'analari ta'sirida yuzaga kelgan. Jadid ziyolilari yaratgan lug'atlarda har ikki leksikografiya maktablarining belgi-xususiyatlari kuzatildi.

Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbek, Is'hoqxon Ibrat, Nazir To'raqulovlar lug'atlar so'zliklarini tanlash, tarjima lug'atlarida lug'aviy birlikning aynan tarjimasini va dialektal muqobillarini, ayni bir so'zning bir necha variantlarini berishi o'zbek leksikografiyasining muhim yutug'i va o'ziga xosligidir.

Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o'rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila



Date: 23rd September-2025

ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub,millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmatva yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas..... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz”.

Adib Abdulla Qodiriyning tilshunoslik, xususan, lug'atchilik bilan ham shug'ullanganligi ijodining o'rganilmagan yana bir qirrasini namoyon qiladi. Bu davrda yaratilgan ruscha-o'zbekcha lug'atlarning eng muhimlari sirasida Abdulla Qodiriy hamda S.Rahmatiyalar tomonidan yaratilgan «Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik» (2-jild, 34 ming so'z, Toshkent – Qozon, 1934) tarkibi, so'z tanlash prinsiplari, so'zlarning ma'noviy, uslubiy, grammatik tavsiflari, lug'at maqolalarining to'laligi jihatdan o'sha davrda yaratilgan boshqa lug'atlardan ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. turkiy lug'atchilik, arab, fors-tojik lug'atchiligi, usmonli turk lug'atchiligi va shuning barobarida, rus lug'atchiligi bilan ham mukammal tanishib chiqqan. Aniqrog'i, adib lug'atchilikning nazariy va amaliy masalalarini chuqur o'zlashtirgan va puxta egallagan.

Abdurauf Fitrat «Devonu lug'atit turk» asaridagi turkiy so'zlarni izohlashda asl ma'nosidan tashqari, matn tarkibida yuzaga chiquvchi ko'chma ma'nolarini ham izohlashga e'tibor bergan: «Budun – qavm, el, ulus demakdir. «But-bud» tomuri turkchada boy bir tomurdir. «But-bud» muchalaridan (a'zodan) birining ismidir, bizda «son» ham deyiladi. «Butmak – tamom bo'lmoq ma'nosida keladi. Bukun bizda (bu ishni «but» qil!) deyilgani kabi tojiklar ham «in kora bud kun» deylar. Biroq buning fe'llari, bu kun «butmak» emas, «bitmak» shaklida ishlatiladi. Yaraning sog'ayishiga ham «butmak» deyiladirkim, arabcha «eltiyam» demakdir. Yaraning sog'ayishi bir-biridan ayrilgan terining to'planib yopishmog'i bo'lgani uchun bu ma'nodagi «butmak» so'zi jam' ma'nosiga yaqinlashadi-da, bundan «butkul, butun» so'zlari chiqadi. Qavm, el, ulus ma'nosidagi tomurdan «tarqalmoq», «sochilmoq» ma'nolarida «butramoq», «butrashmoq» so'zlari bordir.

Bunday ilmiy izlanishlar, chuqur nazariy tahlil muayyan maqsad sari yo'naltirilganligi aniq. XX asrning 20-yillarida o'zbek tilining ilmiy grammatikasini tuzish o'zbek tilshunoslari oldida turgan asosiy muammolardan bo'lgan. Shu munosabat bilan Fitrat boshchiligidagi «Chig'atoy gurungi» a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar. Ular til qoidalarini milliy tilimizning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yetganliklari bois tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, shevalar asosida materiallar to'plab, ularni ilmiy jihatdan o'rgana boshladilar. Bu yo'lda dastlab unutilgan turkiy so'zlarni tiklashga harakat qiladilar. Bu faoliyat aslida o'zbek tili so'z xazinasini boyitish, tilni ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, milliy adabiy til yaratish yo'lidagi birinchi ijobiy urinishlar edi.

Fitratning yuqoridagi kabi leksikografik izlanishlari lug'atshunoslik sohasining yangi bosqichida eng qadimgi turkiy adabiy asarlar tilini o'rganishdagi ilk, o'ziga xos ilmiy tadqiqotdir. Jami 126 ta sof turkiy so'z izohlangan bu lug'at, o'z navbatida, etimologik, qiyosiy-tarixiy, morfemik, o'zbekcha-forscha-arabcha tarjima, qolaversa, izohli lug'at belgilarini ham o'zida aks ettirgan, bu holat serqirra ijod sohibi Abdurauf



Date: 23rd September-2025

Fitrat shaxsiyatini lugʻatshunos jadid adibi sifatida yana bir pogʻona yuqoriga koʻtarishi shubhasiz.

Ashurali Zohiriyning lugʻatshunoslik faoliyati «Maorif va oʻqitgʻuvchi» jurnalining 1927 yil 9–10-sonlarida «Kelurnoma» nomi bilan eʻlon qilgan maqolasi⁴² tahlili asosida berilgan.

Ashurali Zohiriyning tilshunos olim sifatida turkiy lugʻatshunoslikning tarixi, nazariy masalalari bilan qiziqishi, leksikografiyaga oid nodir manbalar ustida izlanishlar olib borishi va kerakli nazariy bilim va amaliy koʻnikmani egallashi ayni damda oʻzi yaratgan «Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat»⁴³ ning yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaganligi tabiiy. Ashurali Zohiriyning lugʻatshunoslik faoliyatining oʻrganilmagan asosiy qirralarini toʻliqroq, mukammalroq koʻrsatish hamda XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi tarjima lugʻatlarining takomillashuv jarayonlari va bu masalada jadid adiblarning lugʻat yaratish tamoyillariga qay darajada yondashganliklarini koʻrsatish maqsadida Ashurali Zohiriyning tuzgan «Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat» undan keyinroq Abdulla Qodiriy va S.Rahmatiyalar hammuallifligida yaratilgan «Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik» lugʻatiga qiyoslandi.

Elbekning XX asr 20–30-yillarda matbuotda eʻlon qilgan maqolalarida oʻzlashma soʻzlarning sof turkiy muqobillarini keltirish va ularning imlosini belgilashda soʻzlarning etimologiyasiga eʻtibor berganligi, oʻrganganligi, bu bilan oʻzining lugʻatshunoslik faoliyati davomida etimologiya sohasida ham ilmiy izlanishlar olib borganligi Sh.Bobomurodova tomonidan alohida taʻkidlanadi. Uning ishida Elbekning bu boradagi faoliyatiga keng oʻrin ajratilmaganligi sababli uning lugʻatshunoslik faoliyatini kengroq yoritish maqsadida mazkur boʻlimda adibning soʻzlar etimologiyasi, morfemik tarkibi yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari tahlilga tortildi. Elbek xalq ogʻzaki ijodi materiallari asosida mingdan ortiq soʻzlar izohli lugʻatini tuzib, «Til problemalari» nomli majmuada eʻlon qiladi⁴⁶. Keyinchalik, bu asar «Oʻzbek toʻla soʻzligiga materiallar» deb nomlanadi. Uning oʻzbek lugʻatchiligining takomilida muhim oʻrin tutuvchi bu asari tilimizning boy lugʻat zaxirasini toʻplash, uni oʻrganish va keng xalq ommasiga yetkazish yoʻlida toʻplagan boy materiallari, turkiy lugʻatchilik anʼanalari negizida oʻrgangan tajribasi asosida yaratilgan dastlabki izohli lugʻat namunasi edi. Elbek tomonidan tuzilgan «Oʻzbekcha shakldosh soʻzlar lugʻati» (1924) oʻzbek leksikografiyasi tarixida birinchi bor tuzilgan maxsus lugʻat ekanligi bilan ahamiyatli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Rustam Sharipov Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat Yuridik instituti. “Turkiston jadidchilik harakati tarixidan”. T.: “Oʻqituvchi” 2002.
2. Begali Qosimov, “Uygʻongan millat maʼrifati” T.:Maʼnaviyat, 2005
3. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: OʻzMU. 2007.
3. Normamatov S. Jadid munaqqidchiligida til masalasi // Oʻzbekistonda xorijiy tillar (ilmiy-metodik elektron jurnal). – Toshkent, 2017. – №1. – B. 50-58



Date: 23rd September-2025

4. Normamatov S. Abdulla Qodiriyning tilshunoslikka oid qarashlari // Til va adabiyot ta'limi. Ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent, 2017. – №9. – B. 48-50

